

**O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA YANGI YIL MUNOSABATI BILAN
QO‘LLANADIGAN LEKSIK BIRLIKLAR VA ULARNING MADANIY
XUSUSIYATLARI**

Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi

3 - kurs 23.113 guruh talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>

E-mail: nozimaxon57@gmail.com

Annotatsiy

Ushbu maqolada o‘zbek va nemis tillarida Yangi yil bayrami munosabati bilan qo‘llanadigan lisoniy birliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Ilmiy izlanish maqsadi - ikki xalq tilida Yangi yil marosimlari bilan bog‘liq terminlarning shakllanish omillari va madaniy mazmunini aniqlashdir. Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-lingvistik yondashuv, lingvokulturologik tahlil, diskurs tahlili hamda tarjima tahlili qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi terminologiya asosan oilaviy qadriyatlar va mehr-oqibat tushunchalariga asoslanadi, nemis tilidagi birliklar esa ko‘proq diniy-madaniy qatlam bilan uyg‘unlashgan. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Yangi yilga oid lisoniy birliklar har ikkala xalq madaniyatida birdamlik, quvonch va kelajakka ishonch ramzi sifatida umumiylik kasb etadi.

Kalit so‘zlar

Yangi yil, qorbobo, Silvester, lingvokulturologiya, termin, ramz, tarjima, madaniyat, qiyosiy tahlil, leksik birlik.

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В УЗБЕКСКОМ И
НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ В СВЯЗИ С НОВЫМ ГОДОМ, И ИХ КУЛЬТУРНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ**

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ языковых единиц, употребляемых в узбекском и немецком языках по случаю Нового года. Цель исследования - выявить факторы формирования и культурное содержание новогодней терминологии в обоих языках. В качестве методов исследования использовались сравнительно-лингвистический подход, лингвокультурологический анализ, дискурс-анализ и переводоведческий подход. Результаты показывают, что узбекская терминология в большей степени связана с семейными ценностями и понятием взаимной заботы, в то время как немецкие единицы отражают религиозно-

культурные традиции. В заключение отмечается, что новогодняя лексика в обеих культурах символизирует единство, радость и надежду на будущее.

Ключевые слова

Новый год, Дед Мороз, Silvester, лингвокультурология, термин, символ, перевод, культура, сравнительный анализ, лексическая единица.

LEXICAL UNITS USED IN UZBEK AND GERMAN IN CONNECTION WITH THE NEW YEAR AND THEIR CULTURAL FEATURES**Annotation**

This article presents a comparative analysis of linguistic units used in Uzbek and German languages in connection with New Year celebrations. The aim of the research is to identify the factors influencing the formation and cultural content of New Year terminology in both languages. The methods applied include comparative linguistic analysis, linguocultural approach, discourse analysis, and translation analysis. The results show that Uzbek terminology is mainly associated with family values and mutual care, while German units are more strongly rooted in religious and cultural traditions. In conclusion, it is emphasized that New Year-related vocabulary in both cultures symbolizes unity, joy, and hope for the future.

Keywords

New Year, Father Frost, Silvester, linguoculturology, terminology, symbol, translation, culture, comparative analysis, lexical unit.

KIRISH

Yangi yil bayrami jahon xalqlarining deyarli barchasida keng nishonlanadigan, xalqaro ahamiyat kasb etgan madaniy hodisalardan biridir. Ushbu bayram qadimiy marosimlar, diniy anʼanalari va zamonaviy urf-odatlarining uygʻunlashuvi natijasida shakllanib, turli xalqlarning maʼnaviy dunyoqarashini oʻzida mujassam etadi. Bayram jarayonida qoʻllanadigan leksik birliklar nafaqat tildagi soʻz boyligini boyitadi, balki xalqning mentaliteti, qadriyatlari va ramziy dunyosini ham yoritib beradi.

Oʻzbek tilida “Yangi yil”, “archazor”, “qorbobo”, “sovgʻa” kabi birliklar oilaviy totuvlik, mehr-oqibat, farovonlik va xursandchilik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu birliklar oʻzbek xalqining Yangi yilni ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi bayram sifatida qabul qilishini koʻrsatadi. Nemis tilida esa “Neujahr”, “Silvester”, “Weihnachtsbaum”, “Neujahrskarte” kabi birliklar koʻproq diniy-madaniy qatlamlar bilan uygʻunlashib, katolik va protestant anʼanalari, shuningdek, Germaniya xalqlarining tarixiy merosini oʻzida aks ettiradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu birliklarning qiyosiy oʻrganilishi ikki xalqning bayram madaniyati, ijtimoiy qadriyatlari va milliy tafakkuri haqida kengroq tasavvur

hosil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, leksik birliklar orqali xalqning ramziy tafakkuri, ijtimoiy-madaniy tajribasi va madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonidagi xususiyatlari ham oydinlashadi. Shu bois, Yangi yil bayramiga oid o'zbek va nemis tillaridagi leksik birliklarning tahlili nafaqat lingvistik, balki madaniy va semiotik jihatdan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yangi yil marosimlari va ular bilan bog'liq til birliklari masalasi ko'plab ilmiy yo'nalishlarda etnolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslikda keng o'rganilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bayram va marosimlarga oid lisoniy birliklar xalqning madaniy identitetini shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va ijtimoiy birlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, J. Lotman marosimlarni madaniyat semiosferasining ajralmas qismi sifatida baholab, ularni ramzlar orqali jamiyatning umumiy ma'nolar maydonini shakllantiruvchi tizim deb talqin qiladi²⁵. M. Eliade esa bayramlarni “muqaddas vaqt”ni qayta tiklash marosimi sifatida izohlab, ularning insoniyat tafakkurida tarixiy va diniy asoslari mavjudligini ta'kidlaydi²⁶. Shuningdek, rus tilshunoslari Yu. Apresyan va N. Arutyunova til birliklarining semantik qatlamida xalqning madaniy va tarixiy tajribasi mujassam bo'lishini ilmiy asoslab berganlar²⁷.

Nemis tilshunosligida ham bu mavzuga alohida e'tibor qaratilgan. Xalq bayramlari va marosimlarining lingvistik ifodasi ko'proq “Volkskunde” (xalqshunoslik) doirasida tadqiq etilgan. K. Schmid nemis xalqining Yangi yil marosimlariga oid ramz va urf-odatlarini, ularning tildagi in'ikosini ko'rsatib bergan²⁸. H. Bausinger esa xalqona an'analar va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritib, Yangi yil marosimlari terminologiyasini ijtimoiy-madaniy identitetning muhim unsuri sifatida talqin qilgan²⁹.

Quyidagi usullar yordamida bir qator vazifalar belgilab olingan:

Qiyosiy-lingvistik yondashuvga ko'ra o'zbek va nemis tillarida Yangi yilga oid terminlar, frazeologizmlar va ramziy ifodalarni solishtirish orqali ularning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash.

Lingvokulturologik tahlilda Yangi yil ramzlarining xalq ongida tutgan o'рни, ularning qadriyatlar va mentalitet bilan bog'liqligini o'rganish.

Diskurs tahlili – ommaviy axborot vositalari, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida Yangi yil birliklarining qo'llanishi, ularning kommunikativ va semantik vazifalarini tadqiq etish. Shuningdek, Yangi yil marosimlariga oid atamalarning o'zaro

²⁵ Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПб, 2000. – С. 704.

²⁶ Элиаде М. Священное и мирское. – М.: Республика, 1994. – С. 256.

²⁷ Apresyan Yu.D. Izbrannye trudy. Leksicheskaya semantika. – М.: Yazyki russkoy kultury, 1995. – S. 472.

Arutyunova N.D. Yazyk i mir cheloveka. – М.: Yazyki russkoy kultury, 1999. – S. 896.

²⁸ Schmid, K. Volksbrauche zum Jahreswechsel. – Munchen: Beck, 2001. – S. 214.

²⁹ Bausinger, H. Volkskultur in der technischen Welt. – Stuttgart: Kohlhammer, 1980. – S. 310.

tarjima jarayonida ekvivalentligi, milliy-madaniy o'ziga xoslikni yetkazish darajasini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, adabiyotlarni o'rganish va metodlarni qo'llash Yangi yil marosimlari bilan bog'liq leksik birliklarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va semiotik jihatdan ham keng tahlil qilinishiga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillarida Yangi yilga oid leksik birliklarning shakllanishi turli tarixiy-madaniy omillarga asoslangan bo'lsa-da, ularning asosiy kommunikativ vazifalari umumiylik kasb etadi.

O'zbek tilida Yangi yil terminlari asosan oilaviy birlik, bolajonlik va mehr-oqibat g'oyalariga yo'naltirilgan. Masalan, "qorbobo", "archa bayrami", "sovg'a olish", "yangi yil dasturxon" kabi birliklar bayramni oilaviy qadriyatlar, farovonlik va mehr-oqibat ramzi sifatida talqin qiladi. Bu terminlarda milliy an'analar bilan bir qatorda, XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan zamonaviy bayram timsollari ham mujassam.

Nemis tilida esa Yangi yil bilan bog'liq terminlarda diniy va tarixiy asoslar kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan, "Silvester"- Yangi yil arafasining xristian an'analari nomi bo'lib, Papa Silvestr I xotirasi bilan bog'langan. "Neujahrsgottesdienst" - yangi yil ibodati bo'lib, nemis jamiyatida diniy marosimning muhim elementi sifatida saqlanib kelmoqda. "Feuerwerk" (salyut) esa xalqning yangi yilni quvonch va tantana bilan kutib olish an'alaridan biridir. Bundan tashqari, "Neujahrskarte" (yangi yil tabriknomasi) kabi birliklar ham madaniy muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlildan anglash mumkinki, o'zbek tilida islomiy ramzlar kamroq uchrasa-da, yangi yilning dunyoviy timsollari ko'proq; nemis tilida esa xristianlik va diniy marosimlar bilan bog'liq birliklar kuchliroq. Ijtimoiy mazmundab klib chiqib har ikki tilda ham yangi yil leksikasi xalqning quvonch, kelajakdan umid, birdamlik va hamjihatlik tuyg'ularini aks ettiradi. Madaniy ramzlarga binoan o'zbeklarda sovg'a-salom va bolalar quvonchi asosiy o'rin tutsa, nemis madaniyatida diniy ibodat va ommaviy tadbirlar ko'proq ifodalanadi.

Tarjima jarayonida ham muhim farqlar kuzatildi. Masalan, "Neujahr" so'zi bevosita "Yangi yil" ekvivalentiga ega bo'lsa, "Silvester" kabi birliklar izohlovchi tarjimani talab qiladi ("Yangi yil arafasi kechasi"). Shuningdek, "Feuerwerk" so'zini oddiy "feyerverk" deb o'zlashtirish mumkin bo'lsa-da, uni "yangi yil salyuti" tarzida izohlash ham ko'p uchraydi.

Shunday qilib, Yangi yil marosimlariga oid leksik birliklar ikki xalqning madaniy merosini, dunyoqarashini va ijtimoiy qadriyatlarini til vositasida namoyon etadi.

XULOSA

O'zbek va nemis tillarida Yangi yil munosabati bilan qo'llanadigan lisoniy birliklarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu terminlar va ramzlarning

shakllanishida diniy, madaniy hamda tarixiy omillar yetakchi ahamiyatga ega. O'zbek xalqining yangi yilga oid terminologiyasi asosan oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat va bolajonlik g'oyalari bilan bog'liq bo'lsa, nemis xalqi terminologiyasida xristian dini an'analari, tarixiy marosimlar va milliy-madaniy qatlamlar kuchliroq ifodalanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkala tilda ham Yangi yil bayramiga oid lisoniy birliklar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, xalqning quvonch va kelajakka ishonch kayfiyatini aks ettirish, milliy identitetni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, o'zbek va nemis tillaridagi terminlarning tarjima jarayonida ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lsa ("Neujahr - Yangi yil"), ba'zilarining esa izohlovchi tarjimasini zarur ("Silvester - Yangi yil arafasi kechasi").

Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Xususan, madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida, til o'qitish va tarjima amaliyotida Yangi yil bayramiga oid lisoniy birliklarning o'rganilishi xalqlararo muloqot va tushunishni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПб, 2000. – С. 704.
2. Элиаде М. Священное и мирское. – М.: Республика, 1994. – С. 256.
3. Schmid, K. Volksbrauche zum Jahreswechsel. – Munchen: Beck, 2001. – S. 214.
4. Bausinger, H. Volkskultur in der technischen Welt. – Stuttgart: Kohlhammer, 1980. – S. 310.
5. Mudrik A.V. Sotsializatsiya cheloveka: uchebnoe posobie dlya studentov vyssh. ucheb. zavedeniy. – M.: Akademiya, 2006. – S. 304.
6. Apresyan Yu.D. Izbrannyye trudy. Leksicheskaya semantika. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1995. – S. 472.
7. Arutyunova N.D. Yazyk i mir cheloveka. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1999. – S. 896.
8. Lutzeler, H. Deutsche Feste und Bräuche. – Koln: DuMont, 1992. – S. 268.
9. Heine, K. Kultur und Brauchtum in Deutschland. – Berlin: Langenscheidt, 2005. – S. 192.
10. Hofstede, G. Cultures and Organizations: Software of the Mind. – London: McGraw-Hill, 2001. – P. 320.